

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 52 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojakbar Qahramon o'g'li	



TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI



Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
“Arxitektura va raqamli texnologiyalar” kafedrası katta o'qituvchisi
E-mail: khojiakbar739@gmail.com

Annotatsiya. Turizmدا innovatsiyalarni boshqarish va loyihalarni boshqarish mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonining samaradorligi va qulayligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim tashkiliy-iqtisodiy omillar hisoblanadi. Turizmда innovatsion boshqaruv yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda ilg'or marketing usullarini joriy etish, shuningdek, innovatsion yechimlarni shakllantirish maqsadida turli kompaniya va tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishni nazarda tutadi.

Turizm loyihalarini boshqarish esa yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish, infratuzilma obyektlarini barpo etish hamda yirik turistik tadbirlarni tashkil etish kabi yo'nalishlarda loyihalarni rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mazkur yondashuvlar turizm sohasining barqaror rivojlanishiga, raqobatbardoshligini oshirishga va xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: turizmда innovatsiyalarni boshqarish, loyihalarni boshqarish, xizmat ko'rsatish jarayoni, turizm innovatsion boshqaruvi, yangi mahsulot va xizmatlar, raqamli texnologiyalar, marketing usullari.

Abstract. Innovation management and project management in tourism are key organizational and economic components that enhance the efficiency and convenience of customer service processes. Tourism innovation management involves the development of new products and services, the adoption of modern digital technologies and advanced marketing methods, as well as effective collaboration with other companies and organizations to generate innovative solutions.

Tourism project management encompasses the planning, organization, implementation, and control of projects related to various aspects of the tourism industry, including the development of new tourist routes, the construction of infrastructure facilities, and the organization of large-scale tourism events. These approaches contribute to the sustainable development of the tourism sector, improve its competitiveness, and elevate service quality to a higher level.

Keywords: innovation management in tourism, project management, service delivery process, tourism innovation management, development of new products and services, digital technologies, marketing methods.

Аннотация. Управление инновациями и управление проектами в туризме являются важными организационно-экономическими факторами, направленными на повышение эффективности и удобства процесса обслуживания клиентов. Инновационное управление в сфере туризма предусматривает разработку новых продуктов и услуг, внедрение современных цифровых технологий и прогрессивных маркетинговых методов, а также развитие сотрудничества с другими компаниями и организациями для формирования инновационных решений.

Управление туристическими проектами включает планирование, организацию, реализацию и контроль проектов, связанных с различными направлениями туристической отрасли, такими как разработка новых туристических маршрутов, строительство объектов инфраструктуры и проведение крупных туристических мероприятий. Данные подходы способствуют устойчивому развитию туристической индустрии, повышению её конкурентоспособности и улучшению качества предоставляемых услуг.

Ключевые слова: управление инновациями в туризме, управление проектами, процесс предоставления услуг, инновационное управление, разработка новых продуктов и услуг, цифровые технологии, маркетинговые методы.



KIRISH

Turizmدا innovatsiyalar va loyihalarni samarali boshqarish turistlarning ehtiyojlari hamda afzalliklarini chuqur tahlil qilishni, shuningdek, mahalliy bozorlar va raqobat muhitining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Shu bilan birga, innovatsiyalar va loyihalarni boshqarish sohasida yetarli bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, belgilangan maqsadlarga erishish uchun zamonaviy boshqaruv vositalari va usullaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm innovatsion menejmenti doirasida asosiy e'tibor mijozlar tajribasini yaxshilash, xizmatlar sifatini oshirish va turistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratiladi. Mazkur yo'nalishda quyidagi muhim masalalar dolzarb hisoblanadi: turizm sohasida mijozlar tajribasini yanada boyitish va qulaylashtirish uchun qanday yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish mumkin?

Turizmda mijozlar tajribasini yaxshilashga xizmat qiluvchi innovatsion mahsulot va xizmatlarning turli shakllari mavjud. Jumladan, virtual sayohatlar sayyohlarga shaxsan tashrif buyurish imkoniyati cheklangan hududlar bilan masofadan turib tanishish yoki rejalashtirilayotgan manzillar haqida oldindan tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Aqlli texnologiyalar asosida yaratilgan mobil ilovalar sayyohlarga joylashgan hudud haqida tezkor va ishonchli ma'lumot taqdim etish, shuningdek, ularning shaxsiy xohish va qiziqishlariga moslashtirilgan tavsiyalarni olish imkonini yaratadi. Ekologik toza sayohatlar, xususan, ekoturlar sayyohlarga atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda tabiat va yovvoyi hayotning go'zalligidan bahramand bo'lish imkonini beradi.

Shuningdek, pazandalik, vino, madaniy va tematik sayohatlar kabi qiziqarli turlar sayyohlarga o'zlarini qiziqtirgan yo'nalishlar bo'yicha chuqur bilim olish va mahalliy madaniyatni yanada kengroq anglash imkonini yaratadi. Personallashtirilgan gid xizmatlari esa sayyohlarga individual ehtiyojlariga moslashtirilgan yo'l-yo'riq va maslahatlar asosida yuqori sifatli sayohat tajribasini taqdim etadi.

Noyob joylashtirish xizmatlari, jumladan, daraxt uylari, gumbazli uylar va suv ustidagi turar joylar sayyohlarga o'ziga xos yashash va dam olish imkoniyatlarini taklif etadi. Yuz va ovozni aniqlash texnologiyalariga asoslangan avtomatik identifikatsiya tizimlari esa chegara va mehmonxonalarda ro'yxatdan o'tish jarayonlarini tezkor va xavfsiz amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu innovatsion mahsulot va xizmatlar turistik tajribani yanada qiziqarli, qulay, moslashtirilgan va xavfsiz qilish orqali mijozlar qoniqishining oshishiga zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm bozorini diversifikatsiya qilish va uni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari jahon va mamlakatimiz olimlarining doimiy ilmiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Mazkur muammoning ilmiy-nazariy, metodologik hamda amaliy jihatlarini xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan.

Xususan, turizm sohasida bozor mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish masalalari A. P. Durovich, F. Kotler, J. Bouen, L. Duaer, P. Forsayt, A. Papateodoru, J. Meykens, J. Uoker, A. E. Saak, L. F. Xodorkov, A. S. Kuskov, Yu. A. Djaladyan, Yu. F. Volkov, A. Braymer, A. D. Chudnovskiy, N. M. Kuldoshina, A. L. Lesnik, I. P. Masiskiy, S. A. Bystrov, A. V. Chernishev, M. V. Yakimenko, V. G. Fedsov, M. B. Birjakov, V. I. Nikiforov, A. D. Kaurova, M. G. Voronova, A. B. Kosolapov, V. A. Kvartalnov, J. A. Michelli va L. P. Shmatko kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali atroflicha yoritilgan.

Shu bilan birga, mazkur mualliflar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar turizm bozorida diversifikatsiya jarayonini, ya'ni turistik mahsulot turlarini (madaniy-meros, ziyorat, ekologik, MICE, tibbiy, gastronomik, qishloq turizmi va boshqalar) kengaytirish hamda hududlar kesimida taklifni muvozanatlashtirishning nazariy asoslarini beradi. Biroq hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekistonda turizm xizmatlarini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni (institutsonal boshqaruv, marketing va brending, investitsiya rag'batlari, infratuzilma-logistika integratsiyasi, kadrlar salohiyati, servis standartlari va raqamli platformalar) yagona tizim sifatida uyg'unlashtirish zarurati kuchaymoqda. Shu bois, turizm bozorini diversifikatsiya qilishning samarali modelini ishlab chiqish, hududiy resurslar va bozor talabi asosida ustuvor yo'nalishlarni tanlash hamda amaliy natijadorlikni baholash mezonlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Turizm bozorini diversifikatsiya qilish va uni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda barqaror rivojlanish, raqobatbardoshlik va xizmatlar iqtisodiyoti konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Xususan, Philip Kotler va John Bowen tomonidan ishlab chiqilgan xizmatlar marketingi va destinatsiya marketingi bo'yicha yondashuvlar turizm bozorida talabni segmentatsiyalash, mahsulotni pozitsiyalash va xizmatlar sifatini oshirish orqali raqobat ustunligini shakllantirish zarurligini asoslab beradi. Ushbu tadqiqotlarda turistik mahsulotning nomoddiy xususiyati, iste'molchi tajribasi va brend imiji asosiy iqtisodiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi.



Yevropa va xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda turizm bozorining tarkibiy o'zgarishi va diversifikatsiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Adamantios Papatheodorou hamda Peter Forsyth ishlarida turizm raqobat muhitini shakllantiruvchi omillar, transport va logistika, hududiy ochiqlik hamda narx raqobati masalalari tahlil qilinib, bozorni diversifikatsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi. Ularning tadqiqotlarida turizm xizmatlarini hududiy va funksional jihatdan kengaytirish orqali risklarni kamaytirish va mavsumiylik ta'sirini yumshatish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Rossiya va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga ustuvor ahamiyat beriladi. Xususan, Vladimir Kvartalnov va Mikhail Birzhakov asarlarida turizm industriyasini boshqarish, davlat va xususiy sektor hamkorligi, infratuzilma va investitsion muhitni yaxshilash orqali turizm bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari keng yoritilgan. Ushbu yondashuvlarda tashkiliy mexanizmlar iqtisodiy rag'batlar bilan uyg'un holda qaraladi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar turizm bozorini diversifikatsiya qilishning nazariy asoslarini yetarli darajada yoritgan bo'lsa-da, hozirgi sharoitda raqamli texnologiyalar, innovatsion xizmatlar va hududiy raqobat omillarini hisobga olgan holda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni kompleks tarzda takomillashtirish masalalari yanada chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizm obyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonini tahlil qilishda institutsional, iqtisodiy va kadrlar salohiyati bilan bog'liq omillar kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotda mavjud moliyaviy mexanizmlar, inson kapitali holati hamda axborot-boshqaruv infratuzilmasining rivojlanish darajasi baholandi.

Davlat tomonidan taqdim etilayotgan subsidiyalar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, xususiy va xalqaro investorlarni jalb etish bo'yicha institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi. Ushbu yo'nalishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va investitsion muhitni yaxshilash muhim metodologik vazifa sifatida belgilandi.

Inson kapitali va kadrlar malakasi turizm obyektlarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot doirasida soha mutaxassislarining raqamli boshqaruv, axborot texnologiyalari va innovatsion yechimlardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish zarurligi aniqlandi. Maxsus o'quv dasturlari, malaka oshirish kurslari va amaliy treninglarni rivojlantirish raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Axborot va boshqaruv tizimlarining rivojlanish darajasi turizm obyektlarida raqamli transformatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi. Yagona axborot platformalarini shakllantirish orqali axborot almashinuvini jadallashtirish, ishlab chiqarish, logistika va bozor ehtiyojlarini tahlil qilish jarayonlarini optimallashtirish mumkinligi asoslab berildi. Samarali boshqaruv tizimlari va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv qarorlarini izchil va asosli qabul qilish imkonini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm faoliyatini samarali tashkil etish turistlarga kompleks xizmatlar ko'rsatishni taqozo etadi. Xususan, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish muassasalari, ko'ngilochar va madaniy dasturlar turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu xizmatlardan foydalanish natijasida, ayniqsa xorijiy turistlar ishtirokida, mamlakatga valyuta tushumlari hajmi oshadi. Natijada turistik resurslarning turizm faoliyatidagi iqtisodiy mazmuni va ahamiyati tobora ortib boradi.

Shu nuqtai nazardan, turistik resurslar iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Turizmning rivojlanishi mahalliy aholi bandligini ta'minlash, ularning daromad manbalarini kengaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mahalliy aholi turli millat va elat vakillari bilan muloqot qilish, ularning an'ana va qadriyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon milliy madaniyatni saqlash, rivojlantirish va ayrim unutilgan qadriyatlarni qayta tiklashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turistik resurslarning iqtisodiy ahamiyati ekologik jihatdan ham muhim hisoblanadi. Turizmni rivojlantirish jarayonida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati yuzaga keladi. Xususan, suv, havo va o'rmon resurslarini asrab-avaylash, manzarali hududlarni yaratish va saqlash orqali turistlar oqimini ko'paytirish imkoniyati shakllanadi. Bu esa ekologik muvozanatni saqlash bilan bir qatorda turizmning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyalardan keng foydalanish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari asosida sayyohlarning qiziqish



va afzalliklariga moslashtirilgan shaxsiy tavsiyalarni shakllantirish, bron qilish hamda to'lov jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin.

Robotlashtirilgan texnologiyalar mehmonxona va restoranlarda mehmonlarga xizmat ko'rsatish jarayonini optimallashtirish, shuningdek, turistik obyektlarda axborot berish va yo'naltirish xizmatlarini samarali tashkil etish imkonini yaratadi. Buyumlar Interneti (IoT) texnologiyalari esa mehmonxona xonalarida harorat, yoritish va boshqa qulayliklarni mehmonlarning individual xohishlariga muvofiq avtomatik tarzda sozlash imkonini beruvchi "aqlli" muhitni shakllantiradi.

Shuningdek, ma'lumotlar tahlili texnologiyalaridan foydalanish turizm sohasida yangi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan mijozlar talabini chuqur o'rganish, iste'molchilar xulq-atvorini tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mijozlarning yangi turistik mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talablari maqsadli auditoriya hamda xizmat turi xususiyatlariga qarab farqlanadi, bu holat ma'lumotlarida o'z aksini topadi (1-jadval).

1-jadval. Turizm obyektlarini rivojlantirishda IoT (Internet of Things) resurslarining roli¹

Turizm obyektlari	Kiruvchi IoT resurslari obyektlari
Iqtisodiy obyektlar	Boylik va foyda obyektlari
Inson resurslari obyektlari	Ta'lim, o'qitish va kasbiy ko'nikmalar obyektlari
Tabiiy va sun'iy (notabiiy) resurslar obyektlari	Mahsulotlar va tovarlarni saqlash obyektlari
Axborot resurslari obyektlari	Bilim va nou-xau obyektlari

Tadqiqot doirasida olingan ma'lumotlar asosida turizm sohasida yangi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabni shakllantiruvchi bir qator umumiy omillar aniqlandi. Ushbu omillar ko'pchilik mijozlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, sifat omili xaridorlarning sotib olinayotgan mahsulot va xizmatlardan yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish, qulaylik, xavfsizlik va ishonchlilikni kutishini anglatadi.


Qulaylik omili mijozlar uchun mahsulot va xizmatlardan foydalanishning soddaligi va mavjudligini ifodalaydi. Bu qulay joylashuv, onlayn bron qilish imkoniyati, axborotga tez va oson kirish hamda xizmatlardan foydalanishdagi ortiqcha to'siqlarning kamaytirilishini o'z ichiga oladi. Innovatsiya omili esa mijozlarning yangi va qiziqarli mahsulot hamda xizmatlarga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi. Bunda zamonaviy raqamli texnologiyalar, noodatiy ko'ngilochar shakllar va innovatsion yechimlar muhim ahamiyatga ega.

Haqiqiylik omili ayrim mijozlar tomonidan mahalliy madaniyat, an'ana va qadriyatlarni aks ettiruvchi chinakam tajribalarni izlash bilan tavsiflanadi. Bunday tajribalar mahalliy oshxona, hunarmandchilik va madaniy faoliyat turlarini o'z ichiga olishi mumkin. Barqarorlik omili esa atrof-muhitga minimal salbiy ta'sir ko'rsatadigan hamda ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan qiziqish bilan izohlanadi. Ushbu omillar turizm sohasida barcha mijozlar talablarini to'liq qamrab olmasa-da, aksariyat iste'molchilar uchun muhim bo'lgan ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

Turizmda innovatsiyalarning muvaffaqiyatli joriy etilishi bir qator omillarga bog'liq. Avvalo, mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondiradigan, yuqori sifat va qulaylikni ta'minlaydigan innovatsion yechimlar yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish bron qilish va to'lov jarayonlarini soddalashtirish, turistlar va xodimlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlash imkonini beradi. Natijada sayyohlik tajribasi yanada samarali, tezkor, xavfsiz va shaxsiylashtirilgan holga keladi.

Turizm sohasida yangi mahsulot va xizmatlarning samaradorligini baholash uchun turli metodlardan foydalanish mumkin. Xususan, so'rovnoma va fokus-guruhlar orqali potentsial mijozlarning fikr-mulohazalarini yig'ish yangi mahsulot va xizmatlarning qanchalik jozibador ekanligini aniqlashga, shuningdek, ularni takomillashtirish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish orqali bozorda taklif etilayotgan yangi mahsulot va xizmatlar, ularning mijozlar tomonidan qanday baholanayotgani va raqobat ustunliklari aniqlanadi. Ushbu yondashuvlar turizm sohasida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (1-rasm).

1 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1-rasm. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan turizm obyektlari (2024-yil)²

Respublikada turizm hajmini oshirish ko'rsatkichlari, avvalo, tarmoqda yaratilgan xizmatlar qiymati hamda bandlik darajasi bilan o'lchanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni yirik uch guruhga ajratish mumkin. Raqamli texnologiyalar asosida joriy etilayotgan ilg'or yechimlar turizm tarmog'ining institutsional va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

2024-yil holatiga ko'ra, respublikada jami 85,5 mingta turizm obyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 15,9 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,6 %) Toshkent shahriga, 9,4 mingtasi (10,9 %) Farg'ona viloyatiga, 8,8 mingtasi (10,3 %) Toshkent viloyatiga, 8,7 mingtasi (10,1 %) Andijon viloyatiga, 7,3 mingtasi (8,5 %) Samarqand viloyatiga hamda 6,8 mingtasi (8,0 %) Namangan viloyatiga to'g'ri keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati turizm tarmog'i hozircha respublikadagi yetakchi hududlar qatoriga kirmaydi. Shu bilan birga, mazkur hudud tadqiqot obyekti sifatida o'rganilganda, sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlar sohasi bo'yicha ijobiy o'sish salohiyatiga ega ekanligi kuzatiladi. Bu holat hududda raqamli texnologiyalarni joriy etish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali natijadorlikni oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Turizm sohasida yangi mahsulot va xizmatlarning samaradorligini baholashda bir qator amaliy usullardan foydalanish mumkin. Jumladan, kichik guruh testi keng ko'lamda joriy etishdan oldin yangi mahsulot va xizmatlarning samaradorligini cheklangan mijozlar guruhida sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Ma'lumotlarni tahlil qilish usuli esa sotish hajmi, mijozlar soni va boshqa miqdoriy ko'rsatkichlar asosida yangi mahsulot va xizmatlarning natijadorligini baholashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar turistik mahsulotlarni yetkazib berish sifatini oshirish va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Raqamli davlat tushunchasi fuqarolar va biznes subyektlarining davlat tuzilmalari bilan samarali hamkorligini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni o'z ichiga olgan elektron hukumat tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Raqamli davlat doirasida to'lovlar, tovar va xizmatlarni sotish hamda sotib olish, biznesga yo'naltirilgan xizmatlarni taqdim etish, davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlik (G2B), shuningdek, idoralararo axborot almashinuvi (G2G) jarayonlari integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki (G2C) hamda davlat xizmati xodimlari uchun xizmatlar ko'rsatish (G2E) elektron hujjat aylanishi va veb-platformalar orqali kengaytiriladi.

Elektron hukumat tashabbuslari, avvalo, davlat boshqaruvi jarayonlarini takomillashtirish, moliyaviy va vaqt xarajatlarini qisqartirish hamda texnologik va inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, hukumat darajasida strategik aloqalarni rivojlantirish, muassasalararo hamkorlikni kuchaytirish va fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish ushbu tizimning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti (www.stat.uz) ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



“Elektron hukumat” (e-government) atamasi 1990–2000-yillar boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyatning siyosiy va ijtimoiy sohalariga keng joriy etilishi bilan ommalasha boshladi. Elektron hukumat davlat organlari, fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mobil vositalar va Internet imkoniyatlaridan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini samarali ko‘rsatishni nazarda tutadi. Bu jarayonda davlat va arizachi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa minimallashtirilib, boshqaruv samaradorligi va shaffoflik darajasi oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni turizm obyektlariga joriy etish turistik xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar tajribasini boyitish hamda sohaning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, raqamli va virtual texnologiyalar asosida attraksionlar uchun virtual sayohatlarni yaratish, mintaqaning madaniy va tarixiy merosini interaktiv shaklda namoyish etish, shuningdek, zamonaviy muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Narsalar Interneti (IoT) texnologiyalaridan foydalanish turizm xizmatlarini avtomatlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, mehmonxona xonalarida konditsionerlik va yoritish tizimlarini masofadan va avtomatik boshqarish, energiya hamda suv resurslari sarfini nazorat qilish, shuningdek, favqulodda holatlar yuzaga kelganda xodimlarni tezkor xabardor etish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa nafaqat xizmatlar qulayligini oshiradi, balki resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga ham zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turizm obyektlarida raqamli va IoT texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish, ushbu yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, xizmatlar sifati va samaradorligini 2024–2026-yillar davomida izchil oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil yakunlari va 2023-yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so‘zi gazetasi. — 2022-yil 20-yanvar, № 51.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. — Toshkent: O‘zbekiston, 2017. — 104 b.
4. Kvint V. Strategiyalash nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Tasvir, 2018-yil. — 158 b.
5. Amonboyev M., Xalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021-yil. — 110 b.
6. Sayfutdinov Sh.S., Baxromov A.A. Organizatsiya predprinimatelskoy deyatel’nosti v turizme. Darslik. — Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021-yil.
7. Morozov M.A., Morozova N.S., Karpova G.A., Xoreva L.V. Ekonomika turizma. Darslik. — Moskva: Federal’noye agentstvo po turizmu, 2014-yil. — 306 b.
8. ISO 9004:2009. Gestión para el éxito sostenido de una organización. Enfoque de gestión de la calidad. — Madrid: AENOR, 2009.
9. Turizm to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. — 2019-yil 18-iyul, O‘RQ–549-son. — Toshkent // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi. — URL: <http://www.lex.uz/docs/4428097>
10. O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — 2019-yil 5-yanvar, PF–5611-son // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-4143188?ONDATE=06.01.2019>
11. Paskins P. English for Tourism and Hospitality in Higher Education Studies. Course Book with Audio CDs. — Series edited by Terry Phillips. — London, 2010. — 340 p.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100